

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”  
Qo‘qon davlat universiteti  
rektori D.Sh.Xodjaeva  
2026-yil 6-mart**

**60112200 – JISMONIY MADANIYAT TA‘LIM YO‘NALISHI BITIRUVCHI  
KURS TALABALARI UCHUN “MAXSUS (MAJBURIY) FANLARDAN”  
YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYA SINOVLARI DASTURI VA  
BAHOLASH MEZONI**

Bilim sohasi:	100000 – Ta‘lim
Ta‘lim sohasi:	110000 – Ta‘lim
Ta‘lim yo‘nalishi:	60112200 – Jismoniy madaniyat

Ushbu dasturda 60112200 – jismoniy madaniyat ta’lim yo’nalishi uchun “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi”, “Sport va harakatli o’yinlarni o’qitish metodikasi”, “Umumiy pedagogika”, “Umumiy psixologiya” fanlari bo’yicha yakuniy davlat attestatsiyasini o’tkazish tartibi, baholash mezonlari, savollari va o’quv adabiyotlar hamda elektron ta’lim resurslari ro’yxati keltirilgan.

<b>Tuzuvchilar:</b>	R.A.Abdullayev	Qo’qon davlat universiteti Jismoniy madaniyat kafedrasini mudiri, PhD
	A.A.Talipdjanov	Qo’qon davlat universiteti Jismoniy madaniyat kafedrasini mudiri, p.f.n. professor
	Q.T.Arabboyev	Qo’qon davlat universiteti Jismoniy madaniyat kafedrasini dotsenti
	D A.Saliyeva	Qo`qon davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini mudiri, ps.f.n, professor
	Z. A.Xolmatova	Qo`qon davlat universiteti “Pedagogika” kafedrasini mudiri, Dsc, professor
	B.Abdullayeva	Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Pedagogika” kafedrasini, pedagogika fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar:**

Tojiyev M.A.	O’zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti dotsenti, PhD.
Ruzmatov I.E	Qo’qon davlat universiteti Jismoniy madaniyat kafedrasini dotsent v.b, PhD.
N.Erkaboyeva	Qo`qon davlat universiteti“Pedagogika va psixologiya” fakulteti dekani professor, p.f.d
B.Xodjayev	Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Umumiy pedagogika” kafedrasini professori, pedagogika fanlari doktori

Qo’qon davlat universiteti Kengashining 2026-yil 6-mart 7-sonli - qarori bilan tasdiqlangan.

## **JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA METODIKASI fanining mazmuni**

Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi fanining maqsadi hamda vazifalari: Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kursida uchraydigan atamalar, “Jismoniy tarbiya”, “Jismoniy madaniyat tizimi”, “Jismoniy madaniyat”, “Jismoniy rivojlanish”, “Jismoniy ta’lim”, “Jismoniy tayyorgarlik” “Jismoniy kamolot” “Sport” atamalari.

O‘zbekiston Respublikasida jismoniy madaniyat tizimini rivojlanishining umumiy tavsifi: Mamlakatimizda jismoniy madaniyat tizimi haqida, jismoniy madaniyat tizimining tamoyillariga tavsif.

O‘zbekiston Respublikasi hukumatining jismoniy madaniyat va sport bo‘yicha qabul qilgan hujjatlarining ahamiyati: O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida” gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasini tuzish haqida”gi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish davlat dasturi Konsepsiyasi.

Jismoniy madaniyatning jamiyatdagi vazifalari va shakllari: jismoniy tarbiyaning tarixiy xususiyatlari: jismoniy tarbiyaning yuzaga kelishi va rivojlanishi sabablari: jismoniy madaniyat tizimi ma’lum ijtimoiy tashkilot sifatida. jismoniy madaniyat tizimining maqsad va vazifalari (sog‘lomlashtirish, ta’limiy, tarbiyaviy masalalari). Jismoniy madaniyat tizimining qonun-qoidalarini: sog‘lomlashtirishga yo‘naltirilganligi; shaxsning har tomonlama rivojlantirish, jismoniy tarbiyaning mehnat va harbiy amaliyot bilan bog‘liqligi tamoyili. Jismoniy tarbiyadagi yo‘nalishlari: sport mashg‘ulotlari va umumiy jismoniy tayyorgarlikning yetakchi vazifalari haqida nazariy ma’lumotlarga ega qilish.

Jismoniy mashqlar jismoniy tarbiyaning asosiy vositasi: jismoniy mashqlar, jismoniy mashqlarning vujudga kelishi, jismoniy mashqlarning mazmuni va shakli, jismoniy mashqlar klassifikatsiyasi, jismoniy mashqlarning tarixiy klassifikatsiyasi, harakatli o‘yinlar, sport o‘yinlari, gimnastika va uning turlari, turizm jismoniy tarbiya vositasi sifatida.

Tabiatning sog‘lomlashtiruvchi kuchlari va gigienik omillar: tabiatning sog‘lomlashtiruvchi kuchlari va gigiyenik omillar jismoniy tarbiya vositasi sifatida, jismoniy mashqlar ta’sirini belgilovchi omillar.

Jismoniy tarbiyaning didaktik tamoyillari: Qonun-qoidalarini turkumlarga ajratish: harakatlarga o‘rgatish jarayonining xususiyatlari, qonun-qoidalarining o‘zaro bog‘liqligi, “Onglilik va faollik” tamoyili, “Ko‘rgazmalilik” tamoyili, “Muntazamlilik” tamoyili, “Tushunarli va individuallashtirish” tamoyili, “Talablarni asta sekin va tobora oshirib borish” tamoyillari.

Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida qo‘llaniladigan jismoniy tarbiya metodlari: metodlarni tanlashga umumiy talablar, ilmiy asoslanganligi, o‘qitishni qo‘yilgan vazifalariga ularning mosligi, o‘quv materialini o‘ziga xosligi, so‘z, ko‘rgazmalilik, o‘yin, musobaqa va aylanma trenirovka metodlaridan foydalanishni ahamiyati, so‘zning mazmuniy vazifasidan foydalanish metodikasi va jismoniy tarbiyada terminologiya muammosi, so‘zning emotsional vazifasidan foydalanish metodikasi, ko‘rgazmali qabul qilish metodlari (uning ahamiyati, turlari va ularni qo‘llash metodikasi), o‘qitishning amaliy metodlari (o‘yin, musobaqa va qat’iy tartiblashtirilgan mashqlar metodlari); turli yoshdagi guruhlarda metodlardan foydalanishning ahamiyati.

Harakatlarga o‘rgatish bosqichlarining tuzilish asoslari. O‘rgatish bosqichlarining asosiy yo‘nalishi va xususiyati: boshlang‘ich tushunchalar: harakatlanish mahorati, harakatlar ko‘nikmasi, harakatlar malakasi va ko‘nikmalarining ahamiyati, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish. Dastlabki o‘rgatish bosqichi: hatti-harakatlar bilan tanishish: vazifalari, o‘qitish metodlaridan foydalanish. Chuqurlashtirib o‘rgatish bosqichi: harakatlanish mahoratini yuzaga keltirish va takomillashtirish

bosqichi (harakatlanish faoliyati, masalalari o'ziga xos belgilari); o'qitish metodlaridan foydalanish xususiyatlari; harakatlar xatolarini olidini olish va tuzatish, harakatlanish xatolarini mohiyatini tushunish, xatolarini guruhlarga ajratish, xatolar paydo bo'lishi sabablari anglash va uning oldini olish choralari, xatolarini tuzatish usullari, harakatlar samaraliligini baholash mezonlari. Mustahkamlash va takomillashtirish bosqichi: yuksak darajadagi harakatni bajarish mahoratini tashkil etilishi vazifalari (harakat vazifasining o'ziga xos belgilari), o'qitish metodidan foydalanishning xususiyatlari, takrorlashlar muammosi.

Harakat malakalarining tashkil etish qonuniyatlari: malakaning xarakterli belgilari, malakaning fiziologik mexanizmi, harakat malakasini shakllari (1-2-3-fazalari), malakaning stabillashuvi va plastikligi, malaka shakllanishining asta - sekinligi va notekisligi turlari, malakaning so'nishi, malakaning ko'chishi, malakaning salbiy ko'chishi.

Jismoniy sifatlarni rivojlantirish uslubiyoti. Kuch qobiliyatini tarbiyalash metodikasi: kuch qobiliyatlarining rivojlanish darajasini va namoyon bo'lishini belgilovchi omillar, tezlik-kuch qobiliyatlari, portlash kuchi, kuch qobiliyatlarini rivojlantirish usuliyati, kuch qobiliyatlarini rivojlantirish vositalari, Mushaklarni muvofiqlash haqida tushuncha, mushaklarning o'zaro harakatini belgilovchi omillar, turli mushak guruhlarining kuch qobiliyatini rivojlantirish uchun mashqlar, kuch qobiliyati turlari va ularni rivojlantirish usullari, portlash kuchini va mushaklarning ta'sirchanlik qobiliyatini rivojlantirish, tezlik kuchini rivojlantirish.

Tezkorlik qobiliyatini tarbiyalash metodikasi: tezkorlik qobiliyati haqida tushuncha, tezkorlik qobiliyati darajasini rivojlantirish omillari va tezlik qobiliyatlarining paydo bo'lishi, tezkorlik harakatini sezishni rivojlantirish, yakka harakat tezligi va harakat chastotasining rivojlanish usuliyati, tezkorlik qobiliyatining paydo bo'lishida majmuaviy shakllarning rivojlanish usuliyati.

Koordinasion qobiliyatlar va egiluvchanlikni tarbiyalash metodikasi: egiluvchanlik haqida tushuncha, egiluvchanlikning turlari va o'lovchilik mezonlari, egiluvchanlikning rivojlanish darajasini aniqlovchi omillar, egiluvchanlikni rivojlantirish usuliyatining vazifalari va vositalari, egiluvchanlikni rivojlantirishda qo'shimcha ta'sir qiladigan turli mashqlarning munosabati.

Chaqqonlikni tarbiyalash metodikasi: chaqqonlik jismoniy sifat ekani. chaqqonlikni fiziologik va psixologik asoslari, chaqqonlikni tarbiyalash metodikasining asoslari, xususiy (chaqqonlikni nisbatan) sifatlari va ularni tarbiyalash metodikasi, toliqish va zo'riqishga qarshi kurashish, tezkorlik zo'riqishga qarshi kurashish, koordinasion zo'riqishga qarshi kurashish, muvozanatni saqlash va uni tarbiyalash metodikasi.

Chidamlilikni tarbiyalash metodikasi: chidamlilik tushunchasining ta'rifi, charchoq va chidamlilik turlari, chidamlilikni tarbiyalash metodikasining asoslari, chidamlilikni tarbiyalashda yuklamalar mezonlari va komponentlari, aerob imkoniyatlarni oshirish metodikasi, anaerob imkoniyatlarni oshirish metodikasi, aerob va anaerob imkoniyatlarni oshirishga qaratilgan ta'sirlarni birga qo'shish, nafas olish va chidamlilik, maxsus chidamlilikning ba'zi bir turlarini tarbiyalash metodikasining xususiyatlari.

Ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslarini tashkil qilish va o'tkazish usullari: jismoniy tarbiya mashg'ulotlari – o'quv ishlarining asosiy shakli sifatida, mashg'ulotning ta'limiy, tarbiyaviy va sog'lomlashtirishga yo'nalganligini yaxlitligi, mashg'ulotlar vazifalarini ishlab chiqishning ahamiyati, mashg'ulotlarni tuzilish xususiyatlari, mashg'ulotni tashkil etish va o'quvchilar faoliyatini tashkil qilish usullari: frontal, uzluksiz, guruhli, individual, aylanma mashg'ulotlar, maxsus va tayyorlov guruhlari bolalari bilan olib boriladigan jismoniy tarbiya. Umumiy o'rta ta'lim tizimida jismoniy tarbiyani o'rni va ahamiyati, maktab o'quv rejasi bo'yicha umumiy jismoniy tarbiya kursi, darsning o'ziga xos belgilari va unga qo'yiladigan umumiy talablar, darsning mazmuni va uning tuzilishi, darsning vazifalarini aniqlash, darsda yuklamalarning me'yorlash usullari, jismoniy tarbiya darsining turlari, o'quv kun tartibida jismoniy tarbiyaning shakllari. Akademik litsey va

texnikumlarda jismoniy tarbiya darslari, o'quvchilarning darsga tayyorgarligi va darsga qo'yiladigan talablar, darsning pedagogik tuzilishi va o'quvchilar faoliyatini tashkil qilish usullari, darsda yuklamani me'yorlash uslubiyati va jismoniy tarbiya darslarining me'yoriy hujjatlari.

Jismoniy tarbiya darslarida pedagogik nazorat: pedagogik tahlil, xronometraj, pulsometriya o'tkazish uslubiyoti: pedagogik tahlil o'tkazish uslubiyati, xronometraj o'tkazish uslubiyati, pulsometriya o'tkazish uslubiyati, pedagogning darsga tayyorlanishi, darsni tashkil qilish, darsda qo'llaniladigan vositalar, o'rgatish usullarining qo'llanilishi, pedagogning tarbiyaviy ishi, o'quvchilarning xulqi, darsni umumlashtirish va xulosa chiqarish.

Sinfdan tashqari olib boriladigan jismoniy tarbiya ishlariga tavsif: dars oldidan o'tkaziladigan gimnastika, jismoniy tarbiya daqiqalari, katta tanaffuslarda o'tkaziladigan harakatli o'yinlar, kun uzaytirilgan guruhlarda sport soatlari, sport turlari bo'yicha to'garaklarni tashkil qilish va o'tkazish.

### **Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi fanidan davlat attestatsiyasi sinovining asosiy savollari**

1. .... – umuminsoniy madaniyatning bir qismi, inson salomatligini mustahkamlash, jismoniy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyat sohasi.
2. ....bu guruhdagi natijalar vaqt bilan, masofa bilan, snaryadning massasi va aniq mo'ljal bilan o'lchanadi
3. .... - har bir aniq dars uchun tematik jadval asosida ishlab chiqiladi va bo'lajak darsning to'liq batafsil senariysi hisoblanadi.
4. "Jismoniy rivojlanish" qanday tushunchani bildiradi?
5. "Texnika" so'zi qanday ma'noni anglatadi?
6. .... – kerak bo'lgan harakat tempini yo'lga qo'yishda foydalaniladi.
7. .... – bu pedagogning shunday ta'sir faoliyatiki, o'qitishning qandaydir ma'lum bir sharoitida ta'limning xususiy vazifalarini oson hal etish uchun qo'llaniladi. *Nuqtalar o'rniga kerakli so'zni qo'ying.*
8. .... bunda har bir o'yinchi yoki jamoa navbati bilan o'zaro uchrashadi. G'olib eng ko'p ochko to'planishi bilan aniqlanadi. Musobaqa o'tkazishni qaysi usuli haqida so'z yuritilgan?
9. .... to'g'ri tahlil qila bilish talabalarga keyinchalik o'z harakatlarini ob'ektiv baholash, har bir sinf uchun yuklamalarni to'g'ri rejalashtirish, boshqarish usullarini egallashga yordam beradi.
10. 40 minutlik darsning umumiy zichligi 100% ni tashkil qilsa, dars davomida o'qituvchi pedagogik faoliyatga qancha vaqt sarflaydi?
11. 4-sinflar bir o'quv yilida necha soat jismoniy tarbiya dars o'tadi?
12. 80 minutlik darsning motor zichligi 50% ni tashkil qilsa, jismoniy mashqlarni bajarishga qancha vaqt sarflangan bo'ladi?
13. Antropometrik ma'lumotlar
14. Asiklik sport turlari qatorini aniqlang. *1. futbol 2. sportcha yurish 3. eshkak eshish 4. kurash 5. yugurish 6. uzunlikka sakrash 7. suzish 8. uloqtirish*
15. Asosiy o'rgatish metodlariga nimalar kiradi?
16. Atletik sport turlari qatorini aniqlang.

17. Aylanma trenirovka metodini qanday tushunasiz?
18. Baholash uchun yagona o'lchovga (kriteriyga) ega bo'lmagan murakkab kompleksli fazilat.
19. Bajarilayotgan harakatning asosiy mexanizmini bajarish uchun yordam beradigan harakat faoliyati tarkibidagi bo'laklar
20. Bellashuvda yutqazgan ishtirokchi (jamo) keyingi musobaqalardan chetlashtiriladigan musobaqa usuli qanday nomlanadi?
21. Biror faoliyatni puxta o'zlashtirish yoki sifatini yaxshilash maqsadida uni ko'p marta takrorlash.
22. Bolalar harakat koordinasiyasini rivojlantirish uchun maqbul mashq.
23. Bolalardagi chidamlilik sifatini rivojlantiruvchi eng yaxshi vosita.
24. Bolalarning mustaqil harakat faoliyatidagi asosiy jismoniy tarbiya vositasi.
25. Bolalarning sinfdagi (matematika, nutqni rivojlantirish, atrofdagi dunyo bo'yicha) aqliy faoliyatini oshirish yoki ushlab turish, dars davomida ularning dam olishga yordam berish vositasi.
26. Bu tushuncha insonga nisbatan ishlatiladi.
27. Chaqqonlik qaysi turda ko'proq namoyon bo'ladi?
28. Chidamkorlik sifati qanday turlarga bo'linadi?
29. Chidamlilik qanday asbob bilan o'lchanadi?
30. Chiniqish deganda nimani tushunasiz?
31. Dars mazmunining eng yirik xarakterli komponenti
32. Dars xronometrajni tekshiruvchi yuritgan quyidagi hujjatlardan qaysi biri noo'rin ko'rsatilgan?
33. Darsning yuqori motor zichligiga mashg'ulotda o'quvchilar faoliyati qaysi usulda tashkillanganda erishish mumkin?
34. Darsni tashkil etishda o'qituvchining turar joyi qayerda bo'lishi kerak?
35. Darsning qaysi qismlarida frontal metodi keng qo'llaniladi?
36. Darsning umumiy davomiyligi uchun ratsional sarflangan vaqtning nisbati hisoblanib, u bir necha komponentlar asosida o'rganiladi, bu...?
37. Darsning xususiy / umumiy vazifalari keltirilgan qatorni ko'rsating?
38. Dastlabki tayyorgarlik bosqichi hafta davomida qanday shaklda o'tkazilishi joiz.
39. Dinamik rejimdagi kuchga doir muskul zo'riqishlarini aniqlang
40. Egiluvchanlik jismoniy fazilatining qanday turlari mavjud?
41. Egiluvchanlikni qanday asbob bilan o'lchanishi mumkin?
42. Epchillik qaysi turda ko'proq namoyon bo'ladi?
43. Epchillik, topqirlik, tezkorlik, mustaqillik va tashabbuskorlik kabi fazilatlar va qobiliyatlarni yaxshilash imkonni beruvchi metodni aniqlang.

44. Gigienik omillar nimalardan iborat?
45. Harakat amplitudasi bu ...
46. Harakat faoliyatidagi birlamchi (boshlang'ich) tushuncha qanday hosil bo'ladi?
47. Harakat faoliyatlariga ongli munosabatning muhim usullaridan biri bo'lib, u "nima uchun?" degan asosiy savolga javob beradi
48. Harakat malakalarini turli sharoitlarda qo'llay bilishga o'rgatish bosqichining asosiy vazifasi
49. Harakat malakasiga quyidagilarning qaysi biri mos keladi?
50. Harakat vazifalarini hal etish uchun zarur bo'ladigan harakat tuzilishining asosiy zveno va xususiyatlarining to'plami - bu...?
51. Harakat vazifasini oson, samarali hal qilish uchun tanlangan harakat faoliyati- bu?
52. Harakatlarga o'rgatish bosqichlari ko'rsatilgan qatorni belgilang
53. Harakatlarni bo'laklarga bo'lib o'zlashtirish, bir butunligicha o'rgatish, o'yin va musobaqa bu...?
54. Hayotiy sharoitdagi faoliyat uchun lozim bo'lgan chidamlilik
55. Inson hayotining har bir daqiqasida tananing tabiiy morfo-funksional xususiyatlarini yig'indisini nimalar belgilaydi?
56. Inson organizmining asta-sekinlik bilan tabiiy shakllanishi, tashqi ko'rinishini va uni xizmatining o'zgarishi jarayoni bu – ..... deyiladi.
57. Inson tanasida atrof muhitning tashqi tasiriga qarshi muskul zo'riqishi orqali yuzaga keluvchi harakat faoliyatiga qanday jismoniy sifat tarzida qaraladi?
58. Insonning harakat faoliyatida amalga oshiriladigan deyarli barcha jismoniy qobiliyatlar va muvofiqlashtirish qobiliyatlarini shakllantirish uchun eng qulay davr.
59. Insonning ilgari tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish qobiliyati.
60. Insonning muskul tolalari cho'zilmasdan yoki qisqarmasdan rivojlanadigan kuch nima deb ataladi?
61. Ishtirokchilar soni ko'p bo'lganda asosiy musobaqalarda qatnashish uchun eng kuchli ishtirokchilarni tanlab olish maqsadida qanday musobaqalar o'tkaziladi?
62. Izometrik tartibdagi muskul kuchlanishi ta'rifi
63. Jamiyat a'zolarining jismoniy rivojlanishi, jismoniy tayyorgarligi, jismoniy madaniyatining yuksak darajasi
64. Jismoniy tarbiya qonuniyatlari talablariga javob beruvchi, ongli ravishda bajariladigan ixtiyoriy harakat faoliyati –bu?

65. Jismoniy tarbiyaning tamoyillari, vositalari, metodlari va uni tashkiliy shakllarining umumiyliigi – bu?
66. Jismoniy madaniyat nazariyasi fani nimani o‘rganadi?
67. Jismoniy madaniyat tizimining maqsadi
68. Jismoniy madaniyatning mehnat faoliyatida, professional amaliy tayyorgarlik omili sifatida maxsus tayyorgarlik tizimida qo‘llanganda ko‘rinadi.
69. Jismoniy madaniyatning tarkibiy qismi, jismoniy tarbiya vositasi va usuli, jismoniy mashqlarni turli majmualari bo‘yicha musobaqalar tashkil etish, tayyorlash va o‘tkazish tizimi.
70. Jismoniy mashq deb nimaga aytiladi?
71. Jismoniy mashq texnikasi qanday baholanadi?
72. Jismoniy mashq texnikasi qanday qismlarga bo‘linadi:
73. Jismoniy mashqlar fazalarini ko‘rsting.
74. Jismoniy mashqlar jismoniy tarbiyaning asosiy vositasi bo‘lib, u tarixan qanday guruhlariga ajralgan?
75. Jismoniy mashqlar vujudga kelishiga qanday sabablar bo‘ldi?
76. Jismoniy mashqlarga o‘rgaishda bo‘laklarga bo‘lib o‘zlashtirish, bir butunligicha o‘rgatish, o‘yin va musobaqa bu...?
77. Jismoniy mashqlarga o‘rgatish jarayoni bu..... .
78. Jismoniy mashqlarni shakli va mazmuniga ko‘ra turkumlarga bo‘lish bu...?
79. Jismoniy mashqlarning shakli quyidagilarni o‘z ichiga oladi?
80. Jismoniy mashqlarning ta‘sirini belgilovchi omillarga aloqasi yo‘q javobni toping.
81. Jismoniy rivojlanganlikning yaxshi ko‘rsatkichlariga erishish uchun qaysi jarayonlarni to‘g‘ri tashkil qilish kerak?
82. Jismoniy rivojlanish davrining fazalari
83. Jismoniy rivojlanish deganda ..... tushuniladi
84. Jismoniy rivojlanishning shiddatli (keskin) davri
85. Jismoniy sifatlarning turlari to‘liq ko‘rsatilgan javobni aniqlang?
86. Jismoniy ta‘lim tushunchasi mazmunining asosini nima tashkil etadi?
87. Jismoniy tarbiya daqiqalarini bajarishning davomiyligi ..... bo‘lishi tavsiya etiladi.
88. Jismoniy tarbiya darsi nechq qismga bo‘linadi?
89. Jismoniy tarbiya darsi pedagogik vazifalariga ko‘ra qanday tasniflanadi?

90. Jismoniy tarbiya darsida jismoniy yuklanishni boshqarish usulari?
91. Jismoniy tarbiya darsining asosiy qismi uchun sarflanadigan maqbul vaqt.
92. Jismoniy tarbiya darsining tayyorlov qismi uchun sarflanadigan maqbul vaqt.
93. Jismoniy tarbiya darsining tiplarini ko'rsatining?
94. Jismoniy tarbiya darsining tuzilishi?
95. Jismoniy tarbiya darsining yakuniy qismi uchun sarflanadigan maqbul vaqt.
96. Jismoniy tarbiya darsining zichligi .....
97. Jismoniy tarbiya darslari uchun maktablarda necha soat ajratilgan?
98. Jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilar faoliyatini tashkil qilish metodlarini ko'rsating?
99. Jismoniy tarbiya darslarida pulsometriya olib borishdan, ya'ni tomir urishini o'lchashdan asosiy maqsad.
100. Jismoniy tarbiya jarayonida o'rgatish uslublaridan biri
101. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining tizimli shakli bo'lib, bir xil yoshdagi, bir xil kontingentdagi bolalarga belgilangan vaqt ichida dastur mavzularini o'qitish jarayoni
102. Jismoniy tarbiya nazariyasi ilmiy fan tarzida.....
103. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi fanining asosiy tushunchalari
104. Jismoniy tarbiya ta'limida didaktik tamoyillar qanday ma'noni anglatadi?
105. Jismoniy tarbiya tizimidagi dastlabki ikki bo'g'in.
106. Jismoniy tarbiya tizimini mafkuraviy asosi
107. Jismoniy tarbiya tizimining asosiy yo'nalishlari:
108. Jismoniy tarbiya tizimining qaysi bosqichida jarayon katta o'rin egallaydi?
109. Jismoniy tarbiya tizimining tamoyillari.
110. Jismoniy tarbiya tizimining vazifalari?
111. Jismoniy tarbiya tizimining yetakchi tamoyili
112. Jismoniy tarbiyada estetik tarbiyaning vositalariga nimalar kiradi?
113. Jismoniy tarbiyada o'qitish.....
114. Jismoniy tarbiyada so'zdan foydalanish metodlari nimalardan iborat?
115. Jismoniy tarbiyadagi asosiy yo'nalishlarini ko'rsating.
116. Jismoniy tarbiyaning asosiy vositasi?
117. Jismoniy tarbiyaning didaktik tamoyillari qaysilar?

118. Jismoniy tarbiyaning didaktik tamoyillariga nimalar kiradi?
119. Jismoniy tarbiyaning maqsadi nimadan iborat?
120. Jismoniy tarbiyaning maxsus o'rgatish metodlari?
121. Jismoniy tarbiyaning o'ziga xos metodlarini qaysi biri ko'proq kichik yoshdagi bolalarga mo'ljallangan?
122. Jismoniy tarbiyaning qanday ikki maxsus tomoni farqlanadi?
123. Jismoniy tarbiyaning umumiy vazifalari?
124. Jismoniy tarbiyaning uslubiy tamoyillaridan birii?
125. Jismoniy tarbiyaning vazifalari....?
126. Jismoniy tarbiyaning vositalari nimalardan iborat?
127. Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish jarayonida charchoqqa qarshilik ko'rsatish darajasi bu.....?
128. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning jismoniy tarbiyasiga qanday vazifalar qo'yiladi?
129. Kishi jismoniy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari nima?
130. Kishi organizmi bo'g'inlarning harakatchanligi, cho'zilishi va qayishqoqligi bu...?
131. Ko'rsatilgan qaysi atama harakatga o'rgatish va jismoniy sifatlarni tarbiyalashda pedagogik jarayonini belgilaydi?
132. Ko'rsatilgan tamoyillardan qaysi biri umummetodik tamoyil bo'lib hisoblanadi?
133. Kuchning qanday turlari mavjud?
134. Kutilmagan sharoitda zaruriy harakatlarni tez, shiddatli va aniq bajarish bu...?
135. Madaniyatning boshqa turlariga taaluqli bo'lmagan, alohida xususiyatga ega bo'lgan funksiyalar
136. Maksimal kuch bilan zo'riqish harakatni to'la amplitudada, eng yuqori tezlikda, shug'ullanuvchi uchun me'yorida oz vazminlikdagi yuk bilan mashq qilish
137. Maktab jismoniy tarbiya darsi – atamasiga ta'rif bering.
138. Maktab jismoniy tarbiya darsining xronometraji organilganda, pedagogik oqlangan vaqt 42 daqiqani tashkil etdi. Ushbu holatda darsning umumiy zichligi necha % ga teng.
139. Maktabda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil qilish shakllari.
140. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni harakat faolligiga qarab bolalar qanday guruhlariga ajratiladi?
141. Maktabgacha tarbiya muassalaridagi tayyorgarlik guruhlarida mashg'ulotni o'tkazish vaqti....?

142. Malaka bu-.....
143. Mashg'ulotlar turli stansiyalarda sportchilar tomonidan mashqlarni izchil bajarish.
144. Mashg'ulot yuklamasining shiddati deb nimaga aytiladi?
145. Mashq bilan chiniqishni ortishi, qaysi kattalikdagi yuklamaning vazifasi.
146. Mashq bilan chiniqqanlikning erishilgan darajasini saqlab qolish mashqning xususiy vazifalarini hal etish yuklama turlarini qay biri tarkibiga kiradi?
147. Mashq texnikasi qanday baholanadi?
148. Maxsus chidamlilikka ta'rif bering?
149. Mehnat (mashq qilish) davomida ish qobiliyatining vaqtinchalik susayishi nima?
150. Mehnat bilan bog'liq kasbiy tayyorgarlik bilan harbiy amaliy jismoniy tayyorgarlik bir-biridan qanday farq qiladi?
151. Muskul kuchi evaziga bo'ladigan egiluvchanlik
152. Muskul tarangligi – zo'riqishi (kuch namoyon qila olishi) quyidagilarga qarab aniqlanadi. Javoblardan qaysi biri noto'g'ri?
153. Muskul uzunligini kamayishi hisobiga kuchlanish
154. Musobaqa davrining vazifasi.
155. O'quvchilar organizmini qayta tiklashi uchun sekin yugurish, yurish mashqlari beriladi bu darsning qaysi qismida amalga oshiriladi?
156. O'quvchilar jismoniy tarbiyasining maktabdan tashqari shakllariga nimalar kiradi?
157. O'quvchilar jismoniy tarbiyasining xususiy vazifalari qay tarzda amalga oshiriladi?
158. O'quvchilar tomonidan jismoniy mashqlar bajarish jarayonida yo'l qo'yiladigan xatolar qanday guruhlarga bo'linadi?
159. O'quvchilarni sog'ligida, salomatlilik holatida katta o'zgarishlar bo'lsa, katta jismoniy yuklama berish mumkin bo'lmasa, guruhning nomi nima deb ataladi?
160. Odam tanasi va uning a'zolarini o'lchash orqali olinadigan ma'lumotlar - ..... deyiladi.
161. Odam vaznining har bir kilogramiga to'g'ri keladigan kuch miqdori
162. Odamni gavda og'irligini hisobga olmasdan aniqlanadigan kuchga qanday kuch deyiladi?
163. Oilada bolalarning harakat faoliyatiga qiziqishini oshirishdagi asosiy omil.
164. Organizmni havo bilan chiniqtirishning ahamiyati?
165. O'rgatish usullari (harakat faoliyatiga) va rivojlantirish usullari (jismoniy sifatlarni) qaysi metodning tarkibiga kiradi?

- 166.Passiv egiluvchanlik qanday namoyon bo'ladi?
- 167.Passiv statik mashqlarda gavdaning holati ..... hisobiga saqlanadi
- 168.Pedagogik jarayon bo'lgan jismoniy mashqlar orqali inson organizmini funksional jihatlarni takomillashtirishga qaratilgan tarbiya...?
- 169.Pulsometriya orqali hal qilinadigan vazifani aniqlang?
- 170.Qaddi-qomat qanday qilib to'g'ri shakllanadi?
- 171.Qaysi hujjatda darsning qismlari, ularning davomiyligi, ulardagi o'quvchilar faoliyatining mazmuni, bajariladigan harakatlar, foydalaniladigan vositalar, ularning me'yorlari ko'rsatiladi?
- 172.Qaysi javobda sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan vazifa to'g'ri berilgan?
- 173.Qaysi jismoniy sifatni rivojlantiradigan mashqlar bilan shug'ullanish bo'g'inlardagi harakatchanlikni susaytirishi, chegaralash mumkin
- 174.Qaysi mashqlar orqali kuch sifati aniqlanadi?
- 175.Qisqa vaqt ichida katta miqdorda kuch namoyon qila olish qobiliyati
- 176.Quyidagi harakat apparatini boshqarishdagi asosiy qiyinchiliklar qatoridan xato javobni aniqlang
- 177.Quyidagilardan qaysi biri maxsus metodga ta'luqli?
- 178.Quyidagilardan qaysi biri sinfdan tashqari ishlarga kirmaydi?
- 179.Quyidagilardan qaysi biri umumiy funksiyaga taalluqli?
- 180.Quyosh nuri bilan chiniqtirish vositasi nima?
- 181.Shaxs harakatining amalga oshirilishi va boshqarilishining avtomatlashgan shakli.
- 182.Shaxsni har tomonlama rivojlantirish tamoyilining asosiy talablari
- 183.Shaxsning jismoniy va aqliy xususiyatlariga ta'sir qilish va bu harakatni bajarish usullarini yaxshilash maqsadida harakatni takrorlash....
- 184.Shug'ullanuvchi organizmiga beriladigan jismoniy mashqlarni belgilangan hajmiga ...?
- 185.Sinfdai tashqari qaysi mashg'ulot shakllarini bilasiz?
- 186.Sog'liqni mustahkamlashga, keng doirada harakat malakalari va ko'nikmalariga ega bo'lishiga, o'zidan keyingi maxsus tayyorgarlikka zamin bo'lishi uchun xizmat qiladigan asosiy harakat sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan jismoniy tayyorgarlik
- 187.Sog'lom va jismoniy rivojlangan bolalar qaysi gruppaga mansub.
- 188.Sport mashg'ulotining uslublarini shartli ravishda qanday guruhlarga bo'lish mumkin?
- 189.Sport mashg'ulotlarida qaysi umumpedagogik uslublardan foydalaniladi?

190.Sport quyidagicha farqlanadi....

191.Sportchining amaliy tayyorgarligi quyidagilarni o‘z ichiga oladi.

192.Sportchining vazni 90 kg. bo‘lgan holda 200 kg og‘irlikdagi yukni ko‘tarsa, sportchining nisbiy kuchi qanchaga teng?

193.Sportda bahslashish sa‘nati

194.Sportning ekstremal turlari bu.....

195.Sportning siklik turlariga to‘g‘ri tarif berilgan qatorni toping.

196.Ta‘lim metodlari qaysilar?

197.Tabiatning sog‘lomlashtiruvchi kuchlari nimalardan iborat?

198.Ta‘limni har bosqichining uzunligi, davomiyligi quyidagi omillarga bog‘liq:

199.Tamoyillarning qaysi biri shug‘ullanuvchilarning imkoniyatiga qarab, vazifalarni optimal ravishda to‘g‘ri kelishi uchun vosita va uslublarni ataylab belgilaydi?

200.Tashqi qarshiliklarni yengishga qaratilgan mashqlar va individning o‘z tanasi og‘irligini yengishga qaratilgan mashqlar orqali qaysi jismoniy sifat rivojlantiriladi?

**JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA METODIKASI**  
fanidan o‘quv adabiyotlar va elektron ta‘lim resurslari ro‘yxati  
Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar

<b>№</b>	<b>Muallif</b>	<b>Adabiyot nomi</b>	<b>Adabiyot turi</b>	<b>Nashr yili</b>	<b>Adabiyotning ARM dagi shifri</b>	<b>Adabiyotning ARM dagi inventar raqami</b>	<b>ARMdagi soni</b>
1	Maxkamdjanov K.M.	Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi	Darslik	Tashkent 2008	75.1 Ml 8	U-6912/3	15 ta
2	Maxkamdjanov K.M., Nurmatov F.A, Inozemseva L.A, Rustamov L	Sport bayramlarini tashkil qilish va o‘tkazish metodikasi	Darslik	Tashkent 2008	75.1 S78	U-6913	80 ta
3	Yunusova YU.M.	Teoriya i metodika fizicheskoy kulʼtury	Darslik	Tashkent 2007	75.1 Yu564	U-6730/1	20 ta

4	Yunusova YU.M.	Основы методики физической культуры	Darslik	Tashkent 2005	74.267 Yu564	U-6339	10 ta
---	----------------	-------------------------------------	---------	---------------	--------------	--------	-------

### Qo'shimcha adabiyotlar

1. A.Abdullaev, Sh.Xonkeldiev Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi Toshkent., O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti, 2005.
2. Livisskiy A.N Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi Toshkent: 1995.
3. Salomov R.S. Sport mashg'ulotning nazariy asoslari - Toshkent., O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti, 2005.
4. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish Toshkent., O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti 2005.
5. Maxkamdjonov K.M., Tulenova X.B. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi - Toshkent TDPU, 2001-2002.
6. Q.T.Arabboyev Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi (Sport mashg'ulotlarining nazariy asoslari) Darslik "O'zkitobsavdonashriyoti" NMIU Toshkent 2023 y.
7. A.G'ofurov Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi O'quv qo'llanma T.I lim ziyo zakovat 2022y

### Elektron ta'lim resurslari

1. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
2. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
3. [www.edu.Uz](http://www.edu.Uz)

### Sport o'yinlari va uni o'qitish metodikasi fanining mazmuni

Futbol o'yinining kelib chiqishi va rivojlanish tarixi: futbol o'yinini kelib chiqishi, futbol o'yini bo'yicha dastlabki o'yinlar, futbolning Yevropa davlatlariga tarqalishi, Olimpiada o'yinlari dasturiga kiritilishi, FIFA ni tashkil topishi, tuzilishi va faoliyati, uning tarkibidagi har bir qit'adagi futbol federatsiyalarining tashkil topishi, faoliyati va ular rahbarligida futbol musobaqalarining o'tkazilishi, futbol bo'yicha dastlabki Jahon, Yevropa chempionatini o'tkazilishi, olimpiada o'yinlari.

O'zbekistonda futbol o'yinini rivojlanishi: O'zbekistonda futbol o'yinini kirib kelishi va rivojlanishi, Vazirlar Mahkamasining O'zbekistonda futbolni rivojlantirish to'g'risidagi qarori va uning ahamiyati.

Futbol o'yin texnikasining tasnifi: futbol o'yini texnikasi tasnifi, maydon o'yinchisining texnikasi, darvozabon o'yin texnikasi, harakatlanish va to'pni boshqarish texnikasi.

Futbol o'yin taktikasining tasnifi: futbol o'yin taktikasi, futbol o'yin taktikasini bo'linishi, himoya va hujum taktikalari, futbol o'yinida jamoaviy, guruhli va yakka holda hujum va himoya taktikalari, futbol o'yinida hujumga qarshi tez hujum taktikalari, o'yinchilarni joylarini almashtirish, to'psiz harakat qilish texnika va taktikalari.

Basketbol o'yinining kelib chiqishi va rivojlanishi tarixi: basketbol o'yinining kelib chiqishi va rivojlanish bosqichlari, dastlabki musobaqalarni o'tkazilishi, xalqaro basketbol ittifoqi FIBAni tuzilishi va tashkil topishi, basketbol o'yini bo'yicha birinchi Jahon va Yevropa chempionatini o'tkazilishi, basketbol o'yinining Olimpiada o'yinlari (erkaklar va ayollar) dasturiga kiritilishi.

O'zbekistonda basketbol o'yinini rivojlanishi: O'zbekistonda basketbolni rivojlanishi, mustaqillikdan so'ng O'zbekiston basketbolining jahon arenalarida tutgan o'rni.

Basketbol o'yin texnikasining tasnifi: basketbol o'yin texnikasi tasnifi, basketbol o'yin texnikasini bo'linishi, harakatlanish texnikasi va to'pni boshqarish texnikasi.

Basketbol o'yin taktikasining tasnifi: basketbol o'yin taktikasi, hujum va himoya taktikalari, basketbol o'yinida jamoa bo'lib, guruhli va yakka holda hujum va himoya qilish taktikalari, o'yin kombinatsiyalari, to'psiz va to'p bilan harakatlanayotgan raqibga qarshi hujum qilish usullari.

Voleybol o'yinining kelib chiqishi va rivojlanishi tarixi: voleybol o'yinining kelib chiqishi va rivojlanish bosqichlari, dastlabki musobaqalarni o'tkazilishi, xalqaro voleybol ittifoqi FIVBni tuzilishi va tashkil topishi, voleybol o'yini bo'yicha birinchi Jahon va Yevropa chempionatini o'tkazilishi, voleybol o'yinining Olimpiada o'yinlari (erkaklar va ayollar) dasturiga kiritilishi.

O'zbekistonda voleybol o'yinini rivojlanishi: O'zbekistonda voleybolni rivojlanishi, mustaqillikdan so'ng O'zbekiston voleybolining jahon arenalarida tutgan o'rni.

Voleybol o'yin texnikasining tasnifi: voleybol o'yin texnikasi tasnifi, voleybol o'yini texnikasini bo'limlarga bo'linishi, voleybol o'yinida harakatlanish texnikasi va to'pni boshqarish texnikasi, voleybol o'yinida to'pni boshqarish texnikasi, to'pni tepadan, pastdan uzatish va qabul qilish texnikasi, to'pni har xil usulda o'yinga kiritish usullari.

Voleybol o'yin taktikasining tasnifi: voleybol o'yinida hujumga qarshi tez himoya taktikalari, o'yinchilarni o'yin vaqtida joylarini almashtirish, to'psiz harakat qilish taktikalari.

Qo'l to'pi o'yinining kelib chiqishi va rivojlanish tarixi: qo'l to'pi o'yinini kelib chiqishi va rivojlanishi, qo'l to'pi o'yini bo'yicha dastlabki o'yinlar, qo'l to'pi o'yinining Yevropa davlatlariga tarqalishi, Olimpiada o'yinlari dasturiga kiritilishi, FIGA ni tashkil topishi, tuzilishi va faoliyati, uning tarkibidagi har bir qit'adagi qo'l to'pi federatsiyalarining tashkil topishi, faoliyati va ular rahbarligida qo'l to'pi bo'yicha musobaqalarning o'tkazilishi, qo'l to'pi o'yini bo'yicha dastlabki Jahon, Yevropa chempionatini o'tkazilishi.

O'zbekistonda qo'l to'pi o'yinini rivojlanishi: O'zbekistonda qo'l to'pi o'yinining rivojlanishi, mustaqillikdan so'ng O'zbekiston qo'l to'pi o'yinining jahon arenalarida tutgan o'rni.

Qo'l to'pi o'yin texnikasining tasnifi: qo'l to'pi o'yini texnikasini tasnifi, maydon o'yinchisining texnikasi, darvozabon o'yin texnikasi, harakatlanish texnikasi va to'pni boshqarish texnikasi.

### **Sport o'yinlari va uni o'qitish metodikasi fanidan Davlat attestatsiyasi sinovining asosiy savollari**

1. Voleybol o'yini qachon tashkil topgan?
2. Voleybol bo'yicha Birinchi jaxon chempionati qachon o'tkazilgan erkaklar o'rtasida?
3. Voleybol o'yini qachon olimpiada o'yinlari dasturiga kiritilgan?
4. Voleybol maydoni o'lchami?
5. Voleybol to'pini og'irligi qancha?
6. Voleybol to'rining balandligi erkaklar va ayollar uchun qancha?
7. Voleybol o'yini necha partiya o'ynaladi?
8. Voleybol o'yinida partiyalar necha ochkogacha davom etadi?
9. Voleybol to'rining o'lchami qancha bo'ladi?
10. Voleybol to'ridagi antenning uzunligi necha metr?
11. Voleybol o'yinida texnik tanaffus uchun qancha vaqt beriladi?
12. Voleybol o'yinida har bir partiyalarda necha marta texnik tanaffus beriladi?
13. Voleybol o'yinida har bir partiyada murabbiy necha marta tanaffus olishi mumkin?

14. Voleybol o'yinida chiziqdagi xakamlar maydondan keyin necha metr dan turishi lozim.
15. Voleybol o'yini davomida qaysi vaqtda sporniy beriladi.
16. Voleybol to'rining oraligi necha sm....
17. Voleybol so'zi nimani anglatadi....
18. Voleybol o'yinining Vatani qae?
19. Voleybol o'yinining asoschisi kim?
20. Voleybol o'yini qachon va qerda kim tomonidan tashkil qilingan.?
21. Texnika so'zinig ma'nosi....
22. Taktika so'zinig ma'nosi....
23. Voleybolda bir jamoada necha nafar o'yinchi o'ynaydi .....
24. Voleybolda ximoya zonas necha metr...
25. Voleybolda xujum zonas necha metr .....
26. Voleybolda antenaning setkadan balandligi necha sm bo'ladi.....
27. Voleybol maydoni chiziqlari kengligi necha sm bo'ladi.
28. Voleybol to'pini aylanasi necha sm bo'ladi.
29. Voleybol O'zbekistonda nechanchi yillardan beri o'ynaladi?
30. Voleybol xujum zonasida qaysi raqam o'yinchilari joylashadi....
31. Voleybol ximoya zonasida qaysi raqam o'yinchilari joylashadi...
32. Voleybol to'pining ichki bosimi qancha bo'ladi....
33. Voleybolda birinchi zonada to'siq qo'yish uchun ikkinchi zonadagi o'yinchilar sakrashi mumkinmi....
34. Voleybolda to'g'ri xujum zarbasini berish nechta fazaga bo'linadi ....
35. Voleybolda raqibning xujum zarbasiga qarshi xarakat qilishning eng asosiy usuli nima....
36. Voleybolda o'yinchilar kiyimidagi raqamlar necha raqamgacha ruxsat beriladi....
37. Ayollar va erkaklar voleybolida farq bormi....
38. Voleybolda oyoq bilan to'pga zarba berish mumkinmi....
39. Voleybolda to'pni ilib uzatish mumkinmi....
40. Voleybol sport turiga, voleybol nomi qachon berilgan....
41. Voleybol o'yinining dastlabki qoidalari nechanchi yilda ishlab chiqilgan....
42. Voleybol o'yin texnikasi nechta qismga bo'linadi....
43. Voleybolda Libero o'yinchisi nechanchi yilda ta'sis etilgan....
44. Voleybol o'yinida maydonni chegaralovchi antena nechanchi yilda ta'sis etilgan....
45. Voleybol o'yinida to'pni tanani barcha qismi bilan o'ynash nechanchi yilda ta'sis etilgan....
46. Voleybolda xakam kimni murojaatiga ko'ra o'z qaroriga izoh berishi mumkin....
47. Basketbol o'yini qachon kashf qilingan.?
48. Basketbol o'yini kim tomonidan kashf qilingan.?
49. Basketbol o'yini qachon Olimpiada o'yinlari dasturiga kiritilgan.?-
50. Qachon va qerda basketbol bo'yicha ayollar o'rtasida birinchi jaxon chempionati o'tkazilgan.?-
51. Qachon va qerda basketbol bo'yicha erkaklar o'rtasida birinchi jaxon chempionati o'tkazilgan.?-
52. Ayollar basketbol o'yini Olimpiada o'yinlari dasturiga qachon kiritildi?-

53. Basketbol o'yinida «Probejka» qanday holatda vujudga keladi?
54. Basketbol maydoni o'lchami qancha?-
55. Basketbol to'pini og'irligi va aylanasini o'lchami qancha?-
56. Basketbol mashg'ulotlarini tashkil qilish va o'tkazish joyi.?-
57. Basketbol savati diametri qancha bo'ladi?-
58. Basketbolda: poldan savatgacha bo'lgan balandligi qancha bo'ladi?-
59. Basketbolda: poldan shitgacha bo'lgan balandligi qancha bo'ladi?-
60. Basketbol shitining o'lchami qancha.?-
61. Basketbol to'pini yon chiziqdan o'yinga kiritish uchun necha soniya beriladi.?-
62. Basketbol to'pini raqib maydoniga olib o'tish uchun necha soniya beriladi?-
63. Basketbolda hujum uchun necha soniya beriladi?-
64. Basketbol raqib jarima maydoni ichida harakatlanish uchun necha soniya beriladi?-
65. Basketbolda shaxsiy fol nechtagacha beriladi?-
66. Basketbol o'yini necha daqiqa davom etadi?-
67. Basketbol mashg'ulotning asosiy qismidan oldingi umumrivojlantiruvchi va chigalyozdi mashqlarini bajarish jarayoni.?
68. Basketbolda qisqa vaqt ichida ma'lum bir masofani bosib o'tish.?
69. Basketbol o'yini necha bo'limdan iborat?-
70. Basketbol o'yinida maydonda nechta xakam bo'ladi?-
71. Basketbolda umumiy rivojlantiruvchi mashqlar.-
72. Basketbol maydonida bir jamoada nechta o'yinchi ishtirok etadi?-
73. Basketbol to'pining o'gil bolalar uchun diametri qancha?-
74. Basketbolda harakatlarni turli o'zgaruvchan sharoitda tezkorlikda amalga oshirish jarayoni.?-
75. Basketbol to'pining qiz bolalar uchun diametri qancha?-
76. Basketbol mashg'uloti jarayonida amalga oshiriladigan shartli va shartsiz faoliyat.-
77. Basketbol to'pini joyida necha soniya tutib turish mumkin?-
78. Basketbol maydoni yuza va yon chiziglarining qalinligi razmeri.?-
79. Basketbolda o'z guruhidan saylangan etakchi.?
80. Basketbol musobaqasiga necha xil sport formasi olib boriladi?-
81. Basketbol musobaqasida muvaffaqiyatga erishish.-
82. Basketbol musobaqasida imkoniyatni boy berish.-
83. Basketbol o'yinida jamoa nechta foldan keyin jarima beriladi?.-
84. Basketbol o'yinida harakat faoliyatidagi xatolarga tanbeh.?-
85. Basketbolda har bir tashlangan jarima to'pi uchun necha ochko beriladi.?-
86. Basketbol o'yinida o'yinchi nechta ogoxlantirish olgani o'yindan chiqarib yuboriladi?-
87. Basketbol o'yinida qaysi xolatda 2 ochko beriladi?-
88. Basketbol o'yini xar bir bo'limi necha daqiqadan iborat? -

89. Basketbol o'yinida qanday xolatda o'yinchilar almashtiriladi?-
90. Basketbol o'yinida murabbiy bir bo'limda 1-daqiqadan necha marta tanaffus olish xuquqiga ega?-
91. Basketbol maydonining uzunligi va eni?-
92. Basketbolda o'yin yoki musobaqa jarayonini boshqaruvchi va nazorat qiluvchi shaxs?.
93. Basketbol uchrashuvida g'olib bo'lgan jamoaga necha ochko beriladi? -
94. Basketbol o'yini Olimpiyada o'yinlari dasturiga qachon kiritilgan?-
95. Basketbol o'yinni belgilangan tartiblar asosida amalga oshirish jarayoni.-
96. Basketbol o'yini oldidan o'yin jarayoniga kerakli barcha jihozlarni tayyorlash va o'quvchilarni jalb qilish.-
97. Basketbol maydonidagi 3 ochkning maydon razmeri.?-
98. Basketbol o'yinida o'yinchi nechta ogoxlantirish olgani o'yindan chiqarib yuboriladi?-
99. Basketbol o'yinida o'yinchilar necha soniyada xujumni yakunlab kelishi kerak?.-
100. Basketbol sport turidan tadbirlarni o'tkazish jarayoni.-
101. Basketbol sport turidan musobaqlarni o'tkazishda amal qilinadigan qoidalar.-
102. Basketbol o'yining vatani-
103. Basketbol o'yini texnikasi necha bo'limdan iborat.-
104. Basketbol maydonida qancha odam o'ynaydi?.-
105. Beshta qoida buzgan basketbolchi bilan nima bo'ladi?.-
106. Xalqaro basketbol federatsiyasi FIBA qachon va qayerda tashkil topgan?.-
107. Basketbol so'zining ma'nosi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?-
108. Basketbol zalining balandlik masofasi necha metr bo'lishi kerak?-
109. Basketbol maydoni atrofidagi xavfsizlik zonasi.?-
110. Djeymis Neysmit basketbol o'yinini qachon kashf qilgan.?-
111. Basketbolda o'yin taktikasi nima deyiladi?
112. Fint nima?
113. Texnik mahoratni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon nima.
114. Futbol o'yini atamasi qaysi tildan olingan?
115. Futbol so'zining o'zbekcha ma'nosi nima?
116. Futbol o'yini qayerda paydo bo'lgan?
117. Futbol o'yini qiziqarliligi bilan dunyo muhlislari tomonidan qanday nom olgan?
118. Halqaro futbol federatsiyasi (FIFA) qachon tashkil topgan?
119. Halqaro futbol federatsiyasi (FIFA) olimpiada o'yinlari dasturiga qachon kiritilgan?

120. Futbol bo'yicha birinchi jahon chempionati qachon va qaerda o'tgazilgan?
121. Futbol maydoning hajmi qancha?
122. Futbol o'yini necha daqiqa o'ynaladi?
123. Futbol o'yini 1- tayimi uchun necha daqiqa beriladi?
124. Futbol o'yini 2- tayimi uchun necha daqiqa beriladi?
125. Futbol o'yinida ekstra tayimlar uchun necha daqiqa beriladi?
126. Futbol o'yinida ekstra tayimni birinchi bo'limi uchun necha daqiqa beriladi.?
127. Penalti so'zining ma'nosi nima.?
128. Futbol darvozasining hajmi qancha.?
129. Futbol o'yinida bir jamoada nechta o'yinchi o'ynaydi.?
130. Futbol o'yinida maydonda nechta hakam o'yinni boshqaradi.?
131. Futbol o'yinida bosh hakam o'yinni qanday vositalar orqali o'yinni boshqaradi.?
132. Futbol o'yinida nechta o'yinchi almashtirish mumkin.?
133. Futbol o'yinida penaltiylar seriyasida bir jamoadan nechta o'yinchi penaltiy tepadi.?
134. Futbol o'yinida hakam tomonidan necha hil kartochka ko'rsatiladi.?
135. Futbol o'yinida qanday kartochka o'yinchini maydondan chetlatishi mumkin.?
